



INTERAKTIV METODLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

O‘lmasova Durdona

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mustaqil fikrlash darajasiga ta’sir etuvchi omillar, interaktiv yondashuvlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda o‘qituvchilar tajribasiga asoslangan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi, innovatsion pedagogika, aqliy hujum, bahs-munozara, savol-javob, rolli o‘yin.

Abstract. This article presents the development of independent thinking in students through interactive methods in the modern educational process, factors affecting the level of independent thinking, indicators of the effectiveness of interactive approaches, and methodological recommendations based on the experience of teachers.

Keywords: interactive methods, independent thinking, educational effectiveness, innovative pedagogy, brainstorming, debate, question and answer, role-playing

Kirish.

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Zamonaviy ta’lim jarayoni endilikda faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘z qarashlarini asoslashga, muammoni tahlil qilish va yechim topishga yo‘naltirishi zarur. Bu esa o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlovchi *interaktiv metodlardan* samarali foydalanishni taqozo etadi.

Interaktiv metodlar – bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida ikki tomonlama muloqotni tashkil etuvchi, dars jarayonida hamkorlik, tahlil va refleksiya asosida bilim olishni rag‘batlantiruvchi o‘qitish uslublaridir. Mazkur metodlar orqali o‘quvchi faqat tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlovchi, yaratuvchi va baholovchi shaxs sifatida shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid qaror va farmonlarida ham o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” g‘oyasi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi:

Paul, R. & Elder, L. m "Critical thinking is the disciplined art of ensuring that you use the best thinking you are capable of in any set of circumstances." Nomli asarida tanqidiy,

mustaqil fikrlash bu har qanday vaziyatda insonning o'zining eng yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatini qo'llash san'atidir –deb ko'rsatib beradi [1].

Bu olimlar mustaqil fikrlashdagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatadilar. Unga ko'ra mustaqil fikrlaydigan o'quvchi har bir fikrini tartibli, mantiqan asoslab quradi O'z fikrini nazorat qilib, hissiyot yoki shaxsiy xohish emas, dalilga tayanadi. turli nuqtai nazarlarni solishtiradi. haqiqatni topish uchun ishonchli manbalarni tahlil qiladi, agar yangi ma'lumot paydo bo'lsa, o'z nuqtai nazarini o'zgartirishdan cho'chimaydi.

Muslimov N.A. va boshqalar tomonidan yozilgan “Innovatsion ta'lim texnologiyalari” nomli o'quv-metodik qo'llanma O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini keng yoritgan muhim asarlardan biridir. Mualliflar innovatsion ta'limni — an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda, o'quvchini faol sub'ekt sifatida shakllantiruvchi, o'z fikrini mustaqil ifoda etishga undovchi metodlar tizimi sifatida talqin qiladilar [2].

Muhokama

Mustaqil fikrlash — bu shaxsning ma'lumotni o'zlashtiribgina qolmay, uni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish va o'z pozitsiyasini shakllantirish qobiliyatidir. Bu ko'nikma o'quvchining intellektual faolligini oshiradi va uni mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

O'qituvchi dars jarayonida interaktiv metodlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirishga erishishi uchun “Aqliy hujum”, “Muammoli ta'lim”, “Kichik guruhlar bilan ishlash”, “Klaster”, “Insert”, “Sinkveyn” kabi interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarni tahliliy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, o'z fikrni asoslashga, hamkorlikda yechim topish qobiliyatlari shakllanishi mumkin.

O'quvchilarni interaktiv metodlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirishga o'qituvchining roli haqida gapirsak, bunda o'qituvchi, facilitatorlik qiladi. Ya'ni ya'ni yo'naltiruvchi sifatidagi faoliyati bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. O'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki, o'quvchining fikrlash jarayonini boshqaruvchi bo'lishi zarur bo'ladi [3].

Interaktiv metodlardan foydalanish quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Aqliy hujum (Brainstorming)da o'quvchilar erkin fikr bildirishadi, o'qituvchi har bir fikrni qabul qilib, tashakkur bildiradi, hech bir g'oya tanqid qilinmaydi. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lanidan keyin o'qituvchi barcha javobga yaqin fikrlarni umumlashtirib haqiqiy fikrni aytadi.

2. Bahs-munozara (Debate)da o'quvchilar fikrini asoslash, dalillar keltirishni o'rganadilar.

3. Klaster va Venn diagrammasi bildirilgan fikrlar, qo'yilgan savollarsa berilgan javoblarni o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilishni o'rgatadi.

4. Rolga kirish esa, o'quvchilarni berilgan topshiriqlar bo'yicha rollarga kirishib javob berishlari asosida turli nuqtai nazardan fikrlashni rivojlantiradi.

Savol berish texnologiyasini qo‘llash ham o‘quvchilar mustaqil fikrlashini oshiradi bunda, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lmasa, nima bo‘ladi?” kabi ochiq savollar mustaqil fikrni rag‘batlantiradi.

O‘quvchilarga o‘zlari savol tuzish topshirig‘ini berish ham fikrlashni faollashtiradi. masalan “Yomg‘ir yog‘masa, tabiatga qanday ta’sir qiladi?” — bu savol tafakkurni chuqurlashtiradi.

Natija

Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashga o‘rgatib borishda o‘quvchi “tayyor javobni kutish”dan voz kechib, o‘zi tahlil qiladi va o‘zini fikrini erkin bayon qilishni o‘rganadilar. O‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning faolligini va fikrlarining mustaqilligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, guruhli muhokama, “debate” va “keys-stadi” usullari o‘quvchilarning tahliliy fikrlash salohiyati ko‘proq rivojlanishi ko‘rinib turadi.

Xulosa.

Interaktiv metodlar o‘quv jarayonida o‘quvchini faol subyektga aylantiradi, ularning o‘z fikrini erkin ifoda etish, muammoni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mustaqil fikrlash — zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, u interaktiv metodlar yordamida samarali rivojlantiriladi.

Dars jarayonida “Aqliy hujum”, “Debat”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Munozara”, “Rol o‘ynash” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning muloqot madaniyatini, hamkorlikda ishlash malakasini va mas’uliyat hissini oshiradi.

Shuningdek, interaktiv metodlar orqali ta’lim jarayoni o‘quvchining shaxsiy tajribasiga, qiziqishiga va ehtiyojiga mos ravishda tashkil etiladi. Natijada o‘quvchi o‘z fikrini mustaqil shakllantirish, asoslash va himoya qilishga o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki shaxsning faol, ijodkor va mas’uliyatli inson sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Paul & Elder, 2014. “Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life.” Pearson.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
3. Каюмова Н. А. Интегративные подходы в образовании информатики //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-1 (117). – С. 1081-1087.



4. Kayumova N. A., Norqobilova D. O. TALABALARNING AXBOROT
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH //Экономика и социум. – 2025. – №. 1-2 (128). –
С. 249-256.

